

10-SINF JAHONNING IQTISODIY VA IJTIMOYIY GEOGRAFIYASINING MAVZUSIDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH (Jahon xo'jaligi va xalqaro mehnat taqsimoti mavzusida)

Arabboyev Asliddin Rafiqjon o'g'li
Andijon davlat universiteti, Tabiiy fanlar fakulteti
+998901403566

Annotatsiya

Bizga ma'lumki, hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan asrda pedagogdan o'z ustida ishlash, izlash yangi metodikalar topishni taqozo qiladi. Ushbu maqolamiz bilan biz sizlarga 10-sinf jahonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasining Jahon xo'jaligi va xalqaro mehnat taqsimoti mavzusida interaktiv metodlardan foydalanish bo'yicha kerakli taklif va tavsiyalarimizni berib o'tamiz.

Kalit so'zlar: KBI ("Kuzatish, baxslashish, ishontirish") strategiyasi, "Baliq skeleti" strategiyasi, Chizig'iga to'g'rilang metodi

KIRISH

Ta'lim sifatini oshirish borasida qator qarorlar qabul qilinmoqda. Shuningdek, yangi maktablar bunyod etilib, bir qancha maktablarda qaytadan rekonstruksiya ishlari olib borilyapti va sinf xonalari jahon talablariga mos ravishda jihozlanayapti, qolaversa, - "O'qituvchi" maqomi yanada yuksaltirilmoqda.

Bunga yaqqol misol sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 5-sentabr kuni - "O'qituvchi maqomi to'g'risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqish bo'yicha qaror imzolaganligini keltirish joizdir. Barchamizga ma'lumki, har bir o'qituvchi oldidagi muhim vazifa bu yosh avlodga sifatli ta'lim berishdir. Yuqoridagilarga monand ravishda 2023-yil yurtboshimiz tomonidan "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb e'lon qilinishi ham ta'limga bo'lgan e'tiborning na'munasi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

10-sinf Jahonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi darsligi mualliflari V.N.Federko, N.I.Safarova, J.A.Ismatov, Y.E.Nazaraliyevlar yozishgan bo'lib, ushbu darslik zamon talablariga javob beradigan darajada qilib tayyorlangan.

Jahonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasiga juda ko'plab adabiyotlarni, o'quv-uslubiy majmualarni qo'shimcha adabiyotlar safiga kiritilsa bo'ladi.

10-sinf geografiya darsligi yordamida zamonaviy dunyo, uning yirik mintaqalari hamda xalqaro iqtisodiy va siyosiy tizimda muhim o'rin egallagan davlatlarga xos ijtimoiy-iqtisodiy geografik xususiyatlari o'rganiladi.

Darslikning asosiy maqsadi o'quvchilarga jahon, uning yirik mintaqa va mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasiga doir zamonaviy bilim berish, mustaqil bilim olish va uni amaliyotda qo'llashdan iborat.

Darslik ikki qismdan iborat "Umumiy geografik tavsif" va Jahonning regional tavsifi" bo'limlaridan iborat.

NATIJALAR

Adabiyotlarni tahlil qilish davomida taniqli metodist olimlar shuni isbot qiladilarki, o'quvchi yoki talaba manbani o'zi o'qisa 10 %, ma'lumotni eshitib o'rgansa 20 %, sodir bo'lgan voqea, xodisa yoki jarayonni ko'rib, ular to'g'risida ma'lumotlarni eshitganida 50 %, ma'lumotlarni o'zi tengdoshiga uzatganida 80 % o'zlashtirilgan bilimlarni faoliyatiga tatbiq etganida 90 % hajmdagi ma'lumotlarni xotirasida saqlash imkoniyati mavjud ekanligi haqida isbotlaganlar.

10-sinf jahonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasining Jahon xo'jaligi va xalqaro mehnat taqsimoti mavzusida interaktiv metodlardan foydalanish metodlarini birma-bir ko'rib chiqamiz.



I.KBI ("Kuzatish, baxslashish, ishontirish") strategiyasi.

Strategiya o'quvchilarni hayotda o'z o'rnini toppish yo'lida faollik ko'rsatishga rag'batlantirib, ularda yetakchilik, sardorlik sifatlari, jamoada ishlash ko'nikmalari, o'zgalar fikrini xurmat qilgan holda o'z pozitsiyalarini himoyalash, fikrini isbotlay bilish, asoslash, ishontirish, munozara olib borish, murosaga kelish, ijodiy izlanish kabi qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu mashg'ulotda mazkur strategiyani qo'llashda quyidagi shartlarga rioya etiladi:

- 1.O'quvchilar texnologiya qo'llaniladigan mashg'ulot va mavzudan avvalroq xabardor qilinadi.
- 2.Vazifalarni bajarish uchun belgilanadigan aniq vaqt mavzu mazmuni, murakkablik darajasiga ko'ra belgilanadi.
- 3.Metodning baxs-munozaraga asoslanishi, aniq o'tkazilish vaqti va tartibiga egaligi yodda tutiladi.

Mazkur strategiyadan foydalanish tartibi quyidagicha:


- a) O'qituvchi o'quvchilarni 10-sinf jahonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiasining Jahon xo'jaligi va xalqaro mehnat taqsimoti mavzusida mashg'ulotlarni o'tkazish tartibi bilan tanishtiradi.
- b) O'qituvchi o'quvchilarni kichik guruhlariga biriktirib, ularga savollar to'plamini taklif etadi va topshiriqni bajarish vaqt hajmini belgilaydi.

Savollar quyidagicha bo'lishi mumkin:

- 1) Milliy xo'jaliklarning umumlashgann holda jahon xo'jaligi sifatida shakllanishi qaysi davrlarni o'z ichiga oladi?
 - 2) Bug' mashinasini kim ixtiro qilgan?
 - 3) Fan texnika inqilobi qanday jarayon?
 - 4) Postindustrial davr jahon iqtisodiyotida nechanchi bosqich hisoblanadi?
 - 5) Birlamchi sektorlarga nimalar kiradi?
 - 6) Ikkilamchi sektorlarga nimalar kiradi?
 - 7) Uchlamchi sektorlarga nimalar kiradi?
- c) Guruhlar yuqoridagi bittadan savolni tanlov olib, so'zga chiqishga tayyorlanadi.
 - d) Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, navbat bilan guruhlarining chiqishi tashkil etiladi.
 - e) O'qituvchining ko'rsatmasiga binoan har bir guruh chiqishi jarayonida qolgan guruhlar uning fikri va pozitsiyasiga qarshi fikrlarni bildirib, guruh tanlagan yo'lni rad etish orqali uning a'zolarini baxs-munozaraga undaydi.
 - f) So'zga chiqqan har bir guruh boshqa guruhlar a'zolarining o'z fikrlari, tanlagan yo'li hamda keltirgan dalillarning to'g'ri ekanligiga ishontirish, o'z tomoniga og'dirish, imkoni boricha ularni o'z guruhiga qo'shimcha harakat qiladi.
 - g) O'qituvchi baxs-munozaraning natijalari bo'yicha fikrni bildirib, baholab, darsni yakunlaydi.

II. "Baliq skeleti" strategiyasi.

Ushbu strategiya o'quvchilarni faollika, intiluvchanlikka chorlaydigan metodlardan hisoblanadi.



II. Chizig'iga tog'rilang usuli.

1) Agrar davlat	A) iqtisodiyotning tarmoqlar tarkibida uchlamchi va to'rtlamchi sektor tarmoqlari salmog'i yuqori
2) Industrial davlat	B) iqtisodiyotning tarmoqlar tarkibida sanoat va qishloq xo'jaligining salmog'i yuqori
3) Postindustrial davlat	D) iqtisodiyotning tarmoqlar tarkibida qishloq xo'jaligi va sanoatning salmog'i yuqori
4) Agrar-industrial davlat	E) iqtisodiyotning tarmoqlar tarkibida qishloq xo'jaligi va u bilan bog'liq ishlab chiqarish sohalari salmog'i yuqori
5) Industrial-agrar davlat	F) iqtisodiyotning tarmoqlar tarkibida sanoat va qurilish sohalari salmog'i yuqori

XULOSA

Ushbu maqolamdan xulosa o'rnida shuni aytamanki, 10-sinf jahonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasining Jahon xo'jaligi va xalqaro mehnat taqsimoti mavzusida interaktiv metodlardan foydalanish, ta'lim samaradorligining o'sishiga o'quvchilarni faollikka, tashabbuskorlikka, intuluvchan shaxs sifatida komil inson bo'lishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.V.N.Federko, N.I.Safarova, J.A.Ismatov, Y.E.Nazaraliyeva 10-sinf Geografiya darsligi. Yangi nashir-2022, -192 b.
- 2.X.B.Nikadambayeva, D.I.Ro'ziyeva, Z.A.Karabazov "O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi"ni interfaol metodlardan foydalanib o'qitish imkoniyatlari-Toshkent.2017-y, -224 b.
- 3.Mamadaliyev Javlonbek "Materiklar va Okeanlar tabiiy geografiyasi uchun mavzulashirilgan metodlar jamlanmasi" (6-sinf misolida umumiy o'rta ta'lim maktabi geografiya fani o'qituvchilari uchun mo'ljallangan).Andijon-2019. -96 b.
- 4.Isayev A.A., Abdurahmonova H. Farg'ona vodiysi shahar aglomeratsiyalari rivojlanishiga transport omilining ta'siri // Journal of Geography and Natural Resources.<http://sjifactor.com/passport.php?id=22047>
<https://topjournals.uz/index.php/jgnr>
- 5.A.A.Исаев Ўзбекистонда автомобиль ва жамоат транспортида йўловчи ташиш динамикасидаги ўзгаришлар // Journal of Geography and Natural Resources.<http://sjifactor.com/passport.php?id=22047> <https://doi.org/10.37547/supsci-jgnr-02-03-03>
- 6.The use of interactive techniques in the lesson of the geological structure of Uzbekistan and development of the earth's surface in the 7th grade geography// Galaxy International interdisciplinary research journal (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915 Volume 10, Issue 4, April. (2022) 300-303. (Hammualiflari Xabibullayeva M.N, Po'latov U., Abdumalikov H.Q)
- 7.The use of new pedagogical Technologies on the topic of the political map of the world of socio-economic geography lessons// Texas Journal of Multidisciplinary Studies ISSN NO: 2770-0003 04.08.-2022. 6-10 (Hammualiflari Abdurahmonova H, Yuldasheva S)